

## O‘ZBEKISTONNING AVTOTRANSPORT VOSITALARI ISHLAB CHIQRISHDA JAHONDAGI O‘RNI

**Ikromov Farhod Asqarjon o‘g‘li**

*Qarshi tumani 4 son texnikumi*

*Ishlab chiqarish talim ustasi*

*farhodikromov7gmail.com*

*+998916412659*

**Ravshanov Davron Farhod o‘g‘li**

*Qarshi tumani 4 son texnikumi*

*Ishlab chiqarish talim ustasi*

**Rashidov Shaxzod Sulaymon o‘g‘li**

*Qarshi tumani 4 son texnikumi*

*Ishlab chiqarish ta'lim ustasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining avtotransport vositalari ishlab chiqarish sohasidagi rivojlanish jarayonlari, ishlab chiqarish hajmi, eksport salohiyati hamda jahon avtomobil sanoatidagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, mamlakat avtomobil sanoatining iqtisodiy ahamiyati, mavjud muammolari va istiqbollari yoritilgan.*

**Аннотация:** *В данной статье анализируются процессы развития автомобильной промышленности Республики Узбекистан, объемы производства, экспортный потенциал и место страны в мировой автомобильной индустрии. Также рассматриваются экономическое значение отрасли, существующие проблемы и перспективы развития.*

**Annotation :** *This article analyzes the development of the automotive industry in the Republic of Uzbekistan, production volumes, export potential, and the country's position in the global automotive market. It also highlights the economic importance of the industry, existing challenges, and future prospects.*

**Kalit so‘zlar:** *Avtomobil sanoati, UzAuto Motors, ishlab chiqarish hajmi, eksport, global bozor, texnologiya, sanoat rivoji.*

**Ключевые слова:** *Автомобильная промышленность, UzAuto Motors, объем производства, экспорт, мировой рынок, технологии, развитие отрасли.*

**Keywords:** *Automotive industry, UzAuto Motors, production volume, export, global market, technology, industrial development.*

**KIRISH.** Bugungi kunda avtomobil sanoati har qanday davlat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlar uchun bu soha sanoatlashtirish, eksportni kengaytirish va yangi ish o‘rinlarini yaratishda muhim rol

o‘ynaydi. O‘zbekiston ham mustaqillikdan so‘ng avtomobilsozlikni strategik yo‘nalish sifatida rivojlantirib kelmoqda.

O‘zbekiston avtomobil sanoati Markaziy Osiyoda yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Respublikada avtomobil ishlab chiqarish 1996-yildan boshlab yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bugungi kunda bu soha iqtisodiyotning asosiy drayverlaridan biriga aylangan.

### **ASOSIY QISM**

#### 1. O‘zbekiston avtomobil sanoatining shakllanishi va rivojlanishi

O‘zbekiston avtomobil sanoati asosini Asaka shahridagi zavod tashkil etadi. Dastlab Koreyaning Daewoo kompaniyasi bilan hamkorlikda yo‘lga qo‘yilgan ishlab chiqarish keyinchalik milliy kompaniya — UzAuto Motors tomonidan davom ettirildi.

So‘nggi yillarda ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada oshdi. Masalan:

2024 yildagi statistik ma’lumotlarga qaraganda, Respublika avtosanoati 424.8 mingdan ortiq avtomobil ishlab chiqarib, yangi rekordni qayd etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, ishlab chiqarish ko‘rsatkichi 2023-yilga nisbatan yuqori bo‘lsa-da, atigi 0.82 % oshgan. Yengil avtomobillar 399.2 ming dona (yillik o‘shish 0.91 %), tijorat maxsus texnikalari esa – 25.4 ming dona (+2.3 %) ishlab chiqarilgan.

Chevrolet Cobalt ishlab chiqarish bo‘yicha yetakchilikni saqlab qoldi – 164.8 ming dona, bu o‘tgan yilga nisbatan 39.5 % ko‘p. Ushbu model mamlakat avtomobilsozlik sanoatining 40 % foizini tashkil etdi.

Boshqa Chevrolet modellarini ishlab chiqarish statistikasi

Damas: ishlab chiqarish ketma-ket beshinchi yil o‘shib bormoqda va birinchi marta 100 ming avtomobil chegarasidan oshdi (+14.3 %). 2020-yildan beri ushbu modelning ishlab chiqarilishi ikki baravarga ko‘paydi.

Onix: ishlab chiqarish uchdan bir qismga ko‘proqqa o‘shib, 41.6 ming donaga yetdi.

Tracker: ishlab chiqarish 4.5 foizga qisqardi va bir yilda 46 mingdan kam avtomobilni tashkil etdi.

Lacetti: 26-iyulda ishlab chiqarish to‘xtatilgunga qadar 12.8 ming dona avtomobil ishlab chiqarildi.

Boshqa brendlar avtomobillarini ishlab chiqarish statistikasi

Chevrolet belgisi bo‘lmagan avtomobil ishlab chiqarish korxonalarida Koreyaning Kia brendi 19.3 ming avtomobil (2023-yilga nisbatan 28.5 % ko‘p) bilan yetakchilik qilmoqda.

Chery: 6.3 ming dona (-35.9 %).

BYD: 4 ming dona — zavod iyun oyida ishga tushdi.

Haval: 2.47 ming avtomobil — 18.5 barobar o‘shish.

Lada: ilk bor atigi... 6 ta mashina yig‘ildi.

Ishlab chiqarish dinamikasi

Chevrolet Onix va Cobalt sedanlarini ishlab chiqarish sezilarli darajada o'sdi, Tracker krossoverlarini ishlab chiqarish sur'ati esa biroz pasaydi. Mikroven Damas mamlakatimizdagi ikkinchi eng mashhur avtomobilga aylanib, o'z mavqeini mustahkamlashda davom etmoqda.

O'zbekistonda avtomobil ishlab chiqarishning o'sishi mahalliy avtosanoatning rivojlanayotganini va ishlab chiqarilayotgan modellarga bo'lgan talabning ortib borayotganini ko'rsatmoqda. Yanvar oyidayoq Sirdaryo viloyatida Xitoyning Wuling rusumidagi yana bir ixcham 7 o'rinli miniveni yirik qismlardan yig'ila boshlandi.

Taqqoslash uchun: Qozog'istonda 2024-yilda turli toifadagi 147 131 ta transport vositasi yig'ilgan, ammo yetakchilar orasida Chevrolet ham bor.

O'zbekistonda avtomobil ishlab chiqarish: 2024-yil raqamlarda

Qo'stanay shahrida O'zbekiston zavodlaridan keltirilgan qismlardan yig'iladigan Cobalt sedani esa yangi avtomobillar bozorida peshqadam hisoblanadi: bir yil ichida 26 537 donasi sotilgan. Biroq qo'shni respublikada Koreyaning Hyundai rusumidagi avtomobillari ko'proq ishlab chiqariladi va xarid qilinadi. [m.avtoelon.uz](http://m.avtoelon.uz)

2025-yilda bu ko'rsatkich 457 mingdan oshgan.

Bu esa O'zbekiston avtomobil sanoatining barqaror o'sib borayotganini ko'rsatadi.

Ishlab chiqarish hajmi va tarkibi


O'zbekiston avtomobil sanoatida asosan quyidagi modellar yetakchilik qiladi:

Cobalt, Damas, Tracker, Onix

Masalan, 2025-yilda faqatgina Cobalt modeli 161 mingdan ortiq ishlab chiqarilgan

2026-yil boshida esa bir oy ichida 22 mingdan ortiq avtomobil ishlab chiqarilgan va bu o'sish 41% ni tashkil etgan

### “UzAuto Motors”ning yengil avtomobillarini ishlab chiqarish dinamikasi



Ishlab chiqarish jarayonlarining optimallasuvi hamda modernizatsiya qilinishi hisobiga, UzAuto Motors kompaniyasi tarixiy rekordni o'rnatishga erishdi, ya'ni 2016 yildan buyon ishlab chiqarish hajmi 269% ga o'sgan. Ishlab chiqarish jarayoniga yangi texnologiyalarning tatbiq etilishi, uskunalarning yangilanishi va kadrlar malakasining oshirilishi Markaziy Osiyoda yetakchi hisoblangan "UzAuto Motors" kompaniyasini MDHda ham yetakchiga aylantirdi.

[Bugun UzAuto Motors faqat eng zamonaviy avtomobillar, xususan, Chevrolet Tracker va Onix avtomobillarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'ygan. Buning uchun 5 mingdan ortiq muhandis jalb qilingan bo'lib, ularning bir qismini Toshkentdagi Turin politexnika universiteti bitiruvchilari tashkil etadi. O'zbekistondagi mavjud 200 ta korxonaga xorijlik va mahalliy mutaxassislar jalb etilishi natijasida, ular ko'magida Chevrolet Tracker va Onix avtomobillari uchun 1,5 ming dona detal ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Qolaversa, O'zbekistonda Chevrolet Tracker va Onix avtomobillarini ishlab chiqarishni tashkil etish maqsadida "O'zavtosanoat" AJ tomonidan 12 ta yangi mahalliyashtirish loyihasi amalga oshirildi, jumladan, umumiy qiymati 312 million dollarlik yangi zavodlar va yuqori texnologiyali ishlab chiqarish liniyalari ishga tushirildi. Yangi ishlab chiqarish quvvatlarining ishga tushirilishi, 4,5 mingga yaqin yangi ish o'rni yaratish imkonini beradi.

Yangi avtomobillar UzAuto Motors zavodida joriy qilingan Global Emerging Markets (GEM) global platformasi asosida ishlab chiqarilgan bo'lib, bu qo'shimcha muhandislik yechimlarisiz bir necha turdagi avtomobillarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish degani. Mazkur loyihani o'zlashtirish uchun 427,6 million dollar miqdorida sarmoya kiritildi.

Yuqori bosim ostida ishlovchi alyuminiy silindr bloklarini ishlab chiqarishda ilg'or texnologiyadan foydalangan holda innovatsion dvigatellar oilasiga mansub CSS Prime dvigatellarini ishlab chiqarishni o'zlashtirish UzAuto Motors Powertrain kompaniyasida noldan boshlab amalga oshirildi. Innovatsion texnologiyalar tufayli, O'zbekistonda Chevrolet Onix va Tracker avtomobillarining mahalliyashtirish darajasini oshirishga xizmat qiluvchi MDHda yagona zavod ishga tushirildi.

Bu raqamlar mamlakat ichki bozorida talab yuqori ekanini ham ko'rsatadi.

O'zbekistonning jahondagi o'rni

O'zbekiston jahon avtomobil ishlab chiqaruvchi davlatlar orasida yetakchi o'rinlarda bo'lmasa-da, quyidagi jihatlar bilan ajralib turadi:

a) Markaziy Osiyodagi yetakchi davlat

O'zbekiston mintaqada eng ko'p avtomobil ishlab chiqaruvchi davlat hisoblanadi.

b) MDH davlatlari orasida muhim o'rin

UzAuto Motors ishlab chiqarish hajmini oshirish orqali MDH hududida yetakchi bo'lishni maqsad qilgan

c) O‘shish sur‘ati yuqori

So‘nggi yillarda ishlab chiqarish barqaror o‘shib bormoqda (35% gacha o‘shish kuzatilgan)

Eksport salohiyati

O‘zbekiston avtomobillari asosan Qozog‘iston, Rossiya, Qirg‘iziston, Tojikiston davlatlarga eksport qilinadi. Eksport hajmi yil sayin ortib bormoqda va bu mamlakatning xalqaro bozordagi o‘rnini mustahkamlamoqda.

Sohada avtomobil sanoatida bir qator muammolar mavjud:

- Raqobatning yetarli emasligi
- Narxlarning nisbatan yuqoriligi

Yetkazib berish muddatlarining uzoqligi muammolar yuzaga kelgan, texnologik modernizatsiya zarurati, kelajakda elektromobillar ishlab chiqarishni kengaytirish, xalqaro kompaniyalar bilan hamkorlikni kuchaytirish, eksport geografiyasini kengaytirish, raqobatbardosh mahsulotlar yaratish yo‘nalishlar ustuvor bo‘lishi kutilmoqda.

**XULOSA** Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston avtomobil sanoati qisqa vaqt ichida sezilarli rivojlanishga erishdi va mintaqada yetakchi o‘rinni egalladi. Jahon miqyosida hali yetakchi davlatlar qatoriga kirmasa-da, ishlab chiqarish hajmining o‘shishi, eksport salohiyatining ortishi va texnologik yangilanishlar mamlakatning global avtomobil bozoridagi o‘rnini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Kelgusida innovatsiyalarni joriy etish va raqobatbardoshlikni oshirish orqali O‘zbekiston avtomobil sanoati jahon miqyosida yanada muhim o‘rin egallashi mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://avtoelon.uz> — O‘zbekistonda avtomobil ishlab chiqarish statistikasi Avtoelon
2. <https://spot.uz> — 2026-yil avtomobil ishlab chiqarish ma‘lumotlari Spot – Деловые новости Узбекистана
3. <https://kun.uz> — Avtosanoat tahlillari Kun.uz
4. <https://kun.uz> — UzAuto Motors rivojlanishi Kun.uz
5. <https://avtoelon.uz> — 2024-yil ishlab chiqarish natijalari m.avtoelon.uz
6. <https://vaqt.uz> — 2025-yil avtomobil ishlab chiqarish